



**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY YO'NALGANLIKNING KELIB
CHIQUISH OMILLARI**

Saidova Nargiza Ismatulla qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika Universiteti, Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Botirova Iqbolxon Sanjar qizi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti,

Tasviriy san'at yo'nalishi, 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy yo'nalganlikni namoyon bo'lishi hamda kasbiy o'zini o'zi anglashning uslubiy asoslari, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va metodlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bo'lajak pedagog uchun inobatga olish zarur bo'lgan xususiyatlar quyidagicha yoritib beriladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются проявления профессиональной направленности у будущих учителей, а также методологические основы, условия, возможности и методы профессионального самосознания. Особенности, которые необходимо учитывать будущему педагогу, освещаются следующим образом.*

Annotation. *This article discusses the manifestation of professional orientation in future teachers, as well as the methodological foundations, conditions, opportunities, and methods of professional self-awareness. The characteristics that need to be considered by future educators are presented as follows.*

Kalit so'zlar: *Pedagog, identifikatsiyalash, kasb, akmeologik, o'z- o'zini anglash, ta'lim, metod, uslub, kompetensiya, integrativ.*

Mamlakatmiz o'z oldiga qo'ygan stretegik maqsadlariga erishish hamda salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish va bu jarayonda xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarga murojaat qilish mavjud kasbiy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan zamon talabi hisoblanadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun bo'lajak yosh o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Kasbiy yo'nalganlik -bu shaxsning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishi, intilishi va ushbu sohada muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivatsiyasini ifodalovchi tushuncha. Bu



jarayon shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va hayotiy maqsadlari asosida shakllanadi.

Kasbiy o'zini o'zi anglash – professional faoliyatda inson taraqqiyotining eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Shaxsning professional o'zini o'zi tanishi ushbu hayotda o'zingiz nimani aniq belgilashga hamda ma'lum faoliyat turida sa'y - harakatni investitsiyalashga yordam beradi. Shaxs o'zini o'zi anglashi tufayli emas, balki o'zida o'z-o'zini anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, turtki, motiv kabilar mavjudligi uchun ham u insondir.

Shaxs tarbiyasida o'qituvchi o'rningning nihoyatda kata ma'naviy merosimiz durdonalarida ham markaziy o'rinni egallaydi. Bunda biz mutafakkirlar Kaykovus, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar merosini misol qilib olishimiz mumkin. Ular bolani to'g'ri tarbiyalash, uning shaxsini shakllantirishda o'qituvchi mehnatining ahamiyati, mas'uliyati masalasida qimmatli fikrlar qoldirganlar. Bo'lajak o'qituvchilarni davr talablari asosida tayyorlash, ularni o'z kasbining mohir ustasi, yangilikni tez idrok etib, o'z faoliyatida qo'llaydigan - ijodkor qilib tarbiyalash oliy maktab va pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Bu masala bir qator tadqiqotlarning ob'ekti bo'lib xizmat qilgan.

Pedagogik faoliyatga yo'naltirilganlikni shakllantirishda quyidagi omillar asosiy rol o'ynaydi:

Shaxsiy motivatsiya – O'qituvchi bo'lish istagi, ta'lim jarayoniga qiziqish, kasbiy maqsadlarning mavjudligi pedagogik faoliyatga yo'naltirilganlikning muhim omillaridan biridir. Motivatsiya ichki (kasbga bo'lgan muhabbat, bolalar bilan ishlash istagi) va tashqi (ijtimoiy maqom, moddiy manfaat) omillarga asoslanishi mumkin.

Kasbiy o'zlikni anglash – Pedagog shaxsining o'zini kasb bilan bog'liq tarzda idrok etishi, o'zining bilim va qobiliyatlarini pedagogik faoliyatga moslashtirishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'z qobiliyatlarini aniqlash, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Jamiyatning kasbga bo'lgan ehtiyoji – Pedagogik faoliyatga yo'naltirishda ta'lim sohasi va jamiyat tomonidan o'qituvchilarga bo'lgan talab katta rol o'ynaydi. Agar kasbga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj yuqori bo'lsa, bu kasbiy yo'naltirilganlikning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Pedagogik muhitning roli – O'qitish jarayoni, ta'lim muassasalaridagi psixologik muhit, kasb egalarining ijtimoiy obro'si, shuningdek, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimidagi o'qitish usullari pedagogik yo'naltirilganlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijobiy pedagogik muhit kasbiy o'sish uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik faoliyatga yo'naltirilganlik shaxsiy motivatsiya, kasbiy o'zlikni anglash, jamiyatning kasbga bo'lgan ehtiyoji va pedagogik muhit kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shaxsiy motivatsiya insonning kasbga bo'lgan ichki intilishi va qiziqishini belgilasa, kasbiy o'zlikni anglash o'z qobiliyatlarini pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Jamiyatning ushbu kasbga bo'lgan talabi o'qituvchilik faoliyatining ahamiyatini oshiradi,



pedagogik muhit esa kasbiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu omillar birgalikda pedagogik yo'naltirilganlikni shakllantirib, kelajakdagi o'qituvchilarning kasbga nisbatan barqaror qiziqish va mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. Bu omillar pedagogik faoliyatga yo'naltirilganlikni shakllantirish va mustahkamlashda o'zaro bog'liq holda harakat qiladi. Agar ushbu jarayon to'g'ri yo'naltirilsa, kelajakdagi pedagoglar o'z kasbiga nisbatan barqaror qiziqish va mas'uliyat hissiga ega bo'ladilar.

Ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy yo'nalganligini shakllantirishda oilaviy, ijtimoiy va psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar kelajakdagi o'qituvchilarning kasb tanlash motivatsiyasi, kasbiy o'sishi va o'z shaxsiyligini anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy omillar

Oila – insonning birinchi ijtimoiy muhitidir va uning kasbiy yo'nalganligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning kasbga bo'lgan munosabati, pedagogik faoliyatni qadrlash darajasi, oilaviy an'analar va ta'lim berish tarzi bolalarda o'qituvchilikka bo'lgan qiziqish va motivatsiyani shakllantiradi. Pedagoglar oilasida o'sgan bolalar odatda ta'lim sohasi bilan bog'liq kasblarni tanlashga moyil bo'ladilar.

Ijtimoiy omillar

Jamiyatning ta'limga bo'lgan e'tibori va o'qituvchi kasbining nufuzi bo'lajak pedagoglarning kasbiy yo'nalganligiga ta'sir qiladi. Agar jamiyatda o'qituvchilarga hurmat kuchli bo'lsa, bu kasbning jozibadorligi oshadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari, ustozlar, jamoatchilikning pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashi yoshlarning bu sohaga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Psixologik omillar

Bo'lajak pedagogning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy o'zlikni anglash darajasi uning kasbiy yo'nalganligini belgilovchi muhim omillardir. Shaxsning muloqotga ochiqqligi, sabr-toqatlilik, ijodkorlik va mas'uliyat kabi jihatlari pedagogik faoliyat uchun muhim psixologik asos hisoblanadi. Shuningdek, motivatsiya va o'ziga bo'lgan ishonch ham o'qituvchilik kasbini tanlash va unga sodiq qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, hamda tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan, o'qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, aksincha kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo'yadigan jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo'lishi kasbiy bilim, malaka va shuning bilan birga, ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli
2. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
3. Ta'limni axborotlashtirish - 2018: Xalqaro ilmiy-metodik konferentsiya materiallari (Kostroma, 2018 yil 14-17
4. Azixxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2013. – 192 b.
5. Asqarova O'.M., Hayitboev M., Nishonov S.M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2018. – 287 b.
6. Ismoilova N., Abdullaeva D. Trening o'tish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 96 b.

Internet saytlari:

1. http://www.deti.zr.ua/show_article.rhr?a_id=300105. Gosudarstvennaya pomosh detyam- sirotam.
2. <http://eraria.onego.ru/sirota.htm>. Sirotstvo v istorii Rossii.
3. <http://kid-in-danger.narod.ru/>. Sotsialniy priyut dlya detey.